

EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: SWOT TAHLILI ASOSIDA YONDASHUV

Xujamuradova S.I.

Alfraganus university dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada eksport-import operatsiyalari auditining ahamiyati, uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi roli va muammolari SWOT tahlil asosida o'rganilgan. Shuningdek, tahlil asosida eksport-import operatsiyalari auditini takomillashtirish, uni xalqaro amaliyotga moslashtirish va milliy audit tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport-import, audit, SWOT tahlil, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro standartlar, xatarlar, raqamlashtirish, bojxona, soliq, nazorat, strategiya.

Аннотация. В данной статье исследовано значение аудита экспортно-импортных операций, его роль и проблемы во внешнеэкономической деятельности на основе SWOT-анализа. Также на основании проведённого анализа разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию аудита экспортно-импортных операций, его адаптации к международной практике и развитию национальной системы аудита.

Ключевые слова: экспорт-импорт, аудит, SWOT-анализ, внешнеэкономическая деятельность, международные стандарты, риски, цифровизация, таможня, налоги, контроль, стратегия.

Abstract. This article examines the importance of auditing export-import operations, its role, and the challenges it faces in the context of foreign economic activity, using a SWOT analysis approach. Based on the findings of the analysis, practical suggestions and recommendations have been developed to improve the audit of export-import operations, align it with international practices, and enhance the national audit system.

Keywords: export-import, audit, SWOT analysis, foreign economic activity, international standards, risks, digitalization, customs, taxation, control, strategy.

Kirish. Bugungi kunda audit tizimi faqatgina moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki tashkilotda mavjud ichki xatarlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Auditorlar tashkilotning moliyaviy barqarorligi, ichki nazorat tizimi hamda tashqi iqtisodiy muhit ta'sirini xolis va to'liq baholash uchun turli tahliliy usullardan foydalanadilar. Ana shunday samarali tahlil vositalaridan biri — SWOT tahlili hisoblanadi.

SWOT tahlili orqali tashkilotning ichki imkoniyat va muammolari, shuningdek, tashqi muhitdagi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, uning strategik pozitsiyasi tezkor va maqsadli ravishda baholanadi. Bu tahlil usuli orqali eksport-import faoliyatini rivojlantirish strategiyasiga asoslangan qarorlar qabul qilish va biznes-faoliyatni barqarorlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Mazkur maqolada

eksport-import operatsiyalari auditining SWOT tahlili orqali o'rganish va bu tahlilning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, audit jarayonidagi kuchli va zaif tomonlar, imkon va tahdidlarni aniqlashga oid asosiy yo'nalishlar va takliflar taqdim etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqotda tahliliy yondashuv, SWOT (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) usuli qo'llanildi. Ushbu tahlil eksport-import operatsiyalarini audit nuqtai nazaridan kompleks baholashga xizmat qildi.

SWOT tahlili eksport-import operatsiyalari strategiyasi ichki imkoniyatlar (kuchli va zaif tomonlari) va tashqi vaziyatni (imkoniyat va tahdidlarda aks ettirilgan) imkon qadar eng yaxshi tarzda birlashtirishi zarurligini ta'kidlaydi:

kuchli tomonlar (Strengths) - afzalliklar (eksport qiluvchi, import qiluvchi);

zaif tomonlari (Weaknesses) - tovarlar eksporti va importini amalga oshirishdagi kamchiliklar;

imkoniyatlar (Opportunities) - tashqi iqtisodiy muhit omillari, ulardan foydalanish bozorda afzalliklar yaratadi;

tahdidlar (Threats) - bozordagi mavqeini potensial ravishda yomonlashtirishi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining raqobatbardoshligini va shunga mos ravishda tijorat tashkilotining eksport va import hajmini pasaytiradigan omillar.

SWOT tahlili butun dunyo bo'ylab konsalting firmalari tomonidan qo'llaniladigan tashqi iqtisodiy faoliyat uchun eng muhim diagnostika protseduralaridan biridir. Bundan tashqari, u valyuta operatsiyalari uchun biznes texnologiyasi, eksport va import holatini, bo'sh turgan resurslar va tashqi iqtisodiy faoliyatga tahdidlarni baholash texnologiyasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

SWOT tahlilidan foydalanish tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha barcha mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish, eksport va importni rivojlantirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

SWOT tahlili maqsad va vazifani belgilash o'rtasidagi oraliq aloqadir. Maqsad - tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish bo'lib hisoblanadi. So'nggi yillarda tashqi iqtisodiy faoliyat tez sur'atlarda rivojlandi, ammo uni boshqarish tizimi bu o'sish sur'atiga mos ravishda takomillashtirilmagani kuzatilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni strategik boshqarish quyidagilarga imkon beradi:

tashqi bozordagi mavjud vaziyatni baholash;

belgilangan maqsadlarni tushunish, eksport va importni rivojlantirish vazifalarini baholash;

xorijiy kontragentlarning strategik manfaatlarini baholash;

valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha faol va profilaktika choralarini ko'rish;

boshqarish mumkin bo'lgan va boshqarib bo'lmaydigan muammolarni hal qilishga tayyorgarlikni oshirish;

strategiyani amalga oshirish samaradorligini baholash, strategiyaning tashqi muhit sharoitlariga muvofiqligi muammosi haqida ma'lumot berish va boshqaruv

qarorlarini qabul qilish uchun eksport va importdagi o'zgarishlarning mohiyatini tushunishga yordam berish.

Tahlil va natijalar. Maqolada eksport-import operatsiyalari auditi sohasidagi ichki va tashqi omillarni tizimli tahlil qilish uchun SWOT tahlilidan foydalanildi. Quyidagi jadvalda mazkur tahlilning asosiy jihatlari: ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyat auditida ularni qo'llashning kuchli va zaif tomonlari hamda tashqi muhitdagi imkon va tahdidlar ko'rsatilgan (jadval)¹⁵.

Jadval

Eksport-import operatsiyalari auditining SWOT tahlili

S – KUCHLI TOMONLAR (Strengths)	W – KUCHSIZ TOMONLAR (Weaknesses)
Tashqi iqtisodiy faoliyatda shaffoflikni ta'minlash	Kadrlar malakasining pastligi, xalqaro standartlar bo'yicha bilim yetishmasligi
Valyuta va bojxona operatsiyalaridagi xatarlarni aniqlash	Hujjatlar va ma'lumotlar yetarli darajada shakllantirilmagan bo'lishi mumkin
Xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlarni ta'minlash	Tashqi savdo shartnomalarining murakkabligi tufayli tahlilda xatolarning mavjudligi
Bojxona va soliq to'lovlarida xato va suiiste'mollik holatlarini aniqlash imkoni	Korxonalarda ichki nazorat tizimining sustligi
Xalqaro hamkorlar uchun ishonchni oshirish	Auditorlik tashkilotlari va davlat organlari o'rtasida hamkorlikning cheklanganligi
Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholash imkoni	Ayrim hollarda ma'lumotlarga to'liq kirish imkoni cheklangan bo'ladi
Moliyaviy va huquqiy xatarlarni barvaqt aniqlash imkoni	
O – IMKONIYATLAR (Opportunities)	T – TAHDIDLAR (Threats)
Xalqaro bozordagi o'zgarishlarga tezkor moslashish	Xalqaro siyosiy xavflar, sanksiyalar ta'siri
Auditni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish	Valyuta kurslaridagi o'zgarishlar va moliyaviy noaniqliklar
Eksportga yo'naltirilgan korxonalar sonining ko'payishi	Bojxona va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar
Investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan ishlashda talabning ortishi	Xodimlar tomonidan ma'lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish xavfi
Audit xizmatining rivojlanishi va ixtisoslashgan xizmatlarning paydo bo'lishi	Audit natijalarini e'tiborsiz qoldirish va amaliyotda joriy etmaslik
Xalqaro auditorlik standartlarini tatbiq qilish	Xalqaro talablar va milliy tizim o'rtasida nomuvofiqlik

SWOT tahlili shuni ko'rsatadiki, eksport-import operatsiyalari auditini tashkil etishda juda katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan foydalanish uchun kuchli tomonlar asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, eksport-import operatsiyalari auditi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida shaffoflikni ta'minlash, huquqiy va moliyaviy xatarlarni aniqlash, soliq va bojxona nazoratini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning kuchli tomonlari orqali xalqaro sheriklar bilan ishonchli

¹⁵ Normativ-huquqiy xujjatlar va amaliyotni o'rganish natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

munosabatlar o'rnatish va valyuta tushumlarini samarali nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Lekin kuchsiz tomonlar va tahdidlarni kamaytirish uchun amaliy chora-tadbirlar zarur. Masalan, auditorlarning xalqaro kontraktlar va bojxona huquqi bo'yicha bilimlarini oshirish, ichki nazorat tizimini joriy etish, ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash.

Tashqi muhitda esa auditni raqamlashtirish, xalqaro standartlar integratsiyasi, va investorlar talabi ortishi kabi ulkan imkoniyatlar mavjud. Biroq siyosiy xavflar, valyutadagi o'zgarishlar va qonunchilikdagi beqarorlik kabi tahdidlar ham mavjud bo'lib, ular sohaning barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Auditorlar malakasini xalqaro darajaga olib chiqish (sertifikatlashtirish, malaka oshirish).
2. Elektron audit va raqamlashtirilgan hujjatlar tizimini joriy etish.
3. IFRS va ISA standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish.
4. Auditorlik tashkilotlari, bojxona va soliq organlari o'rtasida ma'lumot almashish platformasi yaratish.

Xulosa. Eksport-import operatsiyalari auditi – bu faqat tekshiruv emas, balki tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik vositadir. Uning xalqaro standartlarga moslashuvi, raqamlashtirilishi va professionallashtirish orqali O'zbekistonning tashqi savdodagi pozitsiyasi yanada mustahkamlanadi. SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, bu sohada kuchli tomonlar va katta imkoniyatlar mavjud, ammo ulardan to'liq foydalanish uchun tashkilotlar mutaxassislar bilim va tajribasini oshirish, ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash va tahdidlarga qarshi himoya mexanizmlarini kuchaytirishlari lozim.

Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi takliflar shakllantirildi:

- Auditorlarning tashqi savdo sohasidagi malakasini oshirish;
- Audit jarayonida raqamli tahliliy dasturlardan foydalanish;
- Ichki nazorat va hujjat aylanmasi tizimini kuchaytirish;
- Xalqaro standartlar (IFRS, ISA) asosida audit olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонуни 2021 йил 25 февраль, ЎРҚ-677-сон.

3. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари: I қисм, 2-жилд, Тошкент, 2014.

4. R.D.Dusmuratov. Auditning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma, ToshDAU nashr-tahririyot bo'limi, Toshkent – 2018, 142 b.

5. SWOT Analysis: A Management Tool for Initiating New Activities. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). – 2020.

6. С.И.Хужамурадова. Экспорт-импорт операциялари аудитининг услубий жиҳатларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент – 2025. 113 б.